IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

BADIIY ADABIYOTDA VAFODOR IT OBRAZI

Odiljonova Robiyaxon

Farg‘ona davlat universiteti Filologiya fakulteti

o‘zbek tili yo’nalishi 21.76-guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada it obrazining anchalik vafodor, sadoqatli hamda xaloskor ekanligi Aziz Nesin va Said Ahmad asarlarida ko’rsatib berilgan. Bundan tashqari Aziz Nesinning ushbu obrazni yaratishdagi baddiy mahorati ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar

Badiiy obraz, vafodorlik, sadoqat, xarakter, Said Ahmad “Qorako’z Majnun”, Aziz Nesin “Xaloskor it”.

Badiiy adabiyotning ko‘plab namunalarida uslubning ta’sirchanligini syujetlar salmog‘ini kengaytirish va kitobxon e’tiborini tortish maqsadida ko‘plab hayvonlar xarakterlari va ularning nomlaridan foydalanib kelishiga sabab bo‘lgan. Jumladan, ayyor odamlarni tulkiga, ahmoq, landovur odamlarni bo‘riga, ayyor shu bilan birga o‘ziga yarasha dono odamlar esa ilonga, beg‘am betashvish hayotda faqat rohatda yashovchi odamlarni esa ayiqqa xos xislatlar va nomlar bilan bayon qilgan holda o‘xshatib kelinadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, bu hayvon shakllarining har biri asar matnida o‘ziga xos uslubiy vazifani bajargan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, salbiy xulq-atvorga va xarakterga ega bo‘lgan insonlar doimo yirtqich va vaxshiy hayvonlarga, ijobiy va ezgu fazilatli insonlar esa har doimo uy hayvonlariga o‘xshatib tasvirlangan. Turkiy xalqlar orasida it obraziga mardlik, oliyjanoblik, sadoqat va vafo timsoli sifatida qaraladi. Masalan, Said Ahmadning hikoyalarida it obrazi alohida estetik bo‘yoqdorlik bilan tasvirlangan. Hatto hikoya epigrafining o‘zidayoq “Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri bu “Ashobi kahf”ning vafodor itidir” kabi jumalalar keltirib o‘tilgan. Umuman olganda, “it” obrazi adabiyotda juda ko‘p uchrovchi obrazlardan biridir, shu sababli u “sayyor syujet” ham hisoblanadi. Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun”, “Qoplon”, Aziz Nesinning “Xaloskor it”, Jek Londonning “Oq so‘yloq”, Murod Muhammad Do‘stning “Darvoza yonidagi it” hamda Ivan Turgenevning “Mumu” kabi asarlarda ham aynan ushbu obraz bosh qahramon sifatida tasvirlangan.

Endi biz Aziz Nesinning “Xaloskor it” hikoyasi hamda Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasidagi it obrazi vafodorlik timsoli ekanligini isbotlashga harakat qilamiz. Avvalo, Aziz Nesinning “Xaloskor it” hikoyasini olsak, ushbu hikoyada obraz juda ham ta’sirchan holatda gavdalantirilgan. It o‘z egasiga shunaqangi vafodor bo‘ladiki, hatto o‘zini hayotini berib bo‘lsa ham egasini hayotini qutqarib qolishga harakat qiladi. Bu sahnani aynan yer qimirlash jarayonida ko‘rishimiz mumkin. Uning sezgi organlari juda yaxshi ishlaganidan, yer qimirlashini oldindan sezib beshikdagi chaqaloqni bir necha marotaba tashqari hovliga olib chiqib ketadi. Buni katta xo‘jayini tushunmasdan, hattoki o‘z itini urib, uni hovliga chiqarib ichkariga ham kiritmagan holatlar ham yuz beradi. Lekin it bu ishlarni qilishdan to‘xtamaydi, o‘sha kuni kechqurun yer qimirlashi yuz beradi. It o‘z egasini kavlab qutqarib qoladi va xotini, onasi, qizini ham qayerda ekanligini ko‘rsatib ularni

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

ham qutqarishga yordam beradi. Lekin chaqaloqni qayerdaligini ko‘rsatmasdan birdan g‘oyib bo‘ladi, uy egasi hamma joyni qarab chiqadi, lekin chaqaloqni hech qayerdan topa olmaydi. Ular noiloj tashqariga chiqishadi shu payt ular hovlida beshikdagi chaqaloqni hamda uning oldida yotgan itni ko‘rishadi. Bundan ko‘rinadiki, it faqatgina o‘z egasiga emas, balki uning oila a’zolariga ham sadoqat bilan xizmat qiladi. Shu hodisadan so‘ng it ularning oila a’zolari hisoblanadi, hattoki shu it sababli uy egasi qo‘shnisi bilan sudlashishga ham boradi. Bu holat itni uy egasini haqiqiy do‘sti hamda oila a’zosiga aylanganligini ko‘rsatadi. Lekin asar so‘ngida itning egasi hamma kabi bu olamni tark etadi. It esa shu kundan boshlab g‘oyib bo‘ladi. Bu holat ko‘pchilik naznida itning sadoqati vafot etgan uy egasiga nisbatan kuchli bo‘lganligi bilan baholanadi. Aziz Nesinning mahorati ham aynan shu hikoyani o‘zida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yana bir mahoratli yozuvchi Said Ahmad ham nodir asarlaridan hisoblangan " Qorako‘z Majnun " hikoyasida it obrazi orqali vafodor hayvon timsolini ko‘rsatib berilgan. Ushbu hikoyada Qorako‘z o‘z egasi hisoblangan Saodat aya bilan doim birga bo‘ladi, u qayerga borsa u bilan birga boradi, hattoki Saodat aya kunlab shifoxonada yotganida ham u har on shifoxona derazasi yonidan ketmagan shu Qorako‘z edi. U Saodat ayaning farzandlaridan ham mehrli va vafodor edi. Saodat ayaning o‘g‘li Bo‘rixon ham Qorako‘z singari o‘z onasiga mehr bermagan va o‘z nafsi sababli dinidan kechishdan ham toymagan edi. Biz hikoyani oxrida Qorako‘zning sadoqatiga yana bir karra amin bo‘lamiz. Bu holat aynan Saodat aya vafotidan so‘ng, uning qizini uyida nogahon qo‘yilgan magnitafonga yozilgan Saodat ayani ovozini eshitgan Qorako‘zni xursandligi va o‘z egasini intiqlik bilan kutib ovozini boricha vovillashi, odamlarning gaplari, buyruqlariga e’tibor bermay faqatgina Saodat ayaning buyrug‘ini kutayotgan Qorako‘z o‘z egasiga qanchalik vafodor ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Asar oxrida jahli chiqqan qo‘shnilar Qorako‘zni vovillashidan jig‘ibiyron bo‘lib miltiqda uni otib tashlashgacha borishadi. U o‘z egasiga sadoqatini isbotlaydi. Hattoki, o‘q yegan Qorako‘zning ko‘zidan ikki tomchi ko‘z yosh oqadi. Bu ko‘z yoshlar ham vafo, sadoqat hamda mardlik belgisi edi. Ko‘ryapmizki, ikkala ijodkor ham o‘z asarlarda qalbi vafo, sadoqatga to‘la bo‘lgan jonivorlar ya’ni it obrazi orqali ko‘rsatib berishmoqda. Aziz Nesinda ham, Said Ahmadda ham alal-oqibat itlar o‘z egalari kabi bu dunyoni tark etishadi. Bu ham egalariga nisbatan cheksiz mehr, va sadoqat ekanligi shak-shubhasizdir. Hikoyalarni o‘qiganimizda, ijodkorlarni mahoratiga qoyil qolmasdan ilojimiz yo‘qligini tushunib yetamiz.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz kerakki, birinchi hikoyadagi itning vafosi butun bir oila a’zolarini katta ofatdan saqlab qolgan bo‘lsa, ikkinchi hikoyada itning vafosi Saodat ayaga, o‘z onasini qalbini vayron qilgan noqobil farzandini unitishiga yordam beradi. Hikoyalarda vafo, sadoqat kabi tushunchalar faqatgina ongli mavjudotlarda emas, balki butun olamdagi barcha jonli mavjudotlarda mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Demak, shunday umuminsoniy fazilatlar hisoblangan sadoqat, vafo, mehr kabi tuyg‘ularni yo‘qolib ketmasligi uchun jon-jahdimiz bilan harakat qilishimiz zarur ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Norkuziyeva D.Sh “Zoomorfizmlarning etnolingvomadaniy xususiyatlari”
2. Said Ahmad “Qorako‘z Majnun” asari
3. Aziz Nesin “Xaloskor it” hikoyasi
4. Umarov, D., & Tojimatova, Z. (2023). INTERPRETATION OF THE HERO OF A LITERARY WORK. *Modern Science and Research*, *2*(6), 1104-1106.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

5. Odiljon o‘g‘li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O 'ZIGA XOSLIKLAR. *IQRO* , *2* (2), 777-785.
6. Umarov, D. (2023). THE IMPORTANCE OF LITERARY CRITICISM ARTICLES IN LITERARY STUDIES. *Modern Science and Research*, *2*(6), 848-853.
7. Baxtiyorjon o‘g‘li, S. J. (2023). SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(14), 38-41
8. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational,
9. Qahhor Yo'lchiyev - Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023. №1. – C383-387. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xNOt6eMAAAAJ&citation_for_view=xNOt6eMAAAAJ:mVmsd5A6BfQC
10. LIRIK JANR HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR.Q Yo'lchiyev - Scientific journal of the Fergana State University, 2022. № 2

WORDLY
KNOWLEDGE